“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=372

2026-yil
6-son
iyun
ISSN 3093-8546



Jinoyat qonunchiligida mediatsiya institutining o‘rni va rivojlanish istiqbollari

Jamola Najimova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti, 2-kurs talabasi
e-mail: najimovajamola@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada jinoyat qonunchiligida mediatsiya institutining o‘rni, uning huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari o‘rganiladi. Mediatsiya – tomonlar o‘rtasidagi nizoni muzokaralar orqali hal etishga ko‘maklashuvchi muqobil usul bo‘lib, an’anaviy sud jarayoniga samarali alternativ sifatida e’tirof etilmoqda. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar qonunchilik tajribasi tahlil qilinadi, mediatsiyaning jinoyat ishlarida qo‘llanilishi, uning ijtimoiy va huquqiy ahamiyati ko‘rib chiqiladi.Shuningdek, jinoyat-protsessual qonunchiligiga mediatsiya elementlarini kiritish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Калит сўзлар. mediatsiya, jinoyat qonunchiligi, nizoni hal qilishning muqobil usuli, restorative justice, jinoiy jarayon, vositachilik, sulh, jabrlanuvchi-jinoyatchi dialogi, jinoyat-protsessual huquq.

Аннотация. В данной статье исследуется роль института медиации в уголовном законодательстве, его правовые основы и перспективы развития. Медиация как альтернативный способ разрешения споров путём переговоров признаётся эффективной альтернативой традиционному судебному разбирательству. В статье анализируется законодательный опыт Республики Узбекистан и зарубежных стран, рассматривается применение медиации в уголовных делах, её социальное и правовое значение. Также вырабатываются рекомендации по внедрению элементов медиации в уголовно-процессуальное законодательство.

Ключевые слова. медиация, уголовное законодательство, альтернативное разрешение споров, восстановительное правосудие, уголовный процесс, посредничество, примирение, диалог жертвы и правонарушителя, уголовно-процессуальное право.

Annotation. This article examines the role of the mediation institution in criminal legislation, its legal foundations, and development prospects. Mediation, as an alternative method of resolving disputes through negotiations, is recognized as an effective alternative to traditional judicial

proceedings. The article analyzes the legislative experience of the Republic of Uzbekistan and foreign countries, examines the application of mediation in criminal cases, and its social and legal significance. Recommendations for incorporating mediation elements into criminal procedural legislation are also developed.

Keywords. mediation, criminal legislation, alternative dispute resolution, restorative justice, criminal procedure, reconciliation, victim-offender dialogue, criminal procedural law.

Kirish

Zamonaviy jinoyat huquqi tizimi o‘z oldiga faqat jazolash vazifasini qo‘ymay, balki ijtimoiy munosabatlarni tiklash, jabrlanuvchiga to‘liq yordam ko‘rsatish va jinoyatchi shaxsini isloh qilish kabi ko‘p qirrali vazifalarni ham qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, an’anaviy tergov-sud tizimiga muqobil bo‘lgan yangicha yondashuvlarni joriy etish masalasi global miqyosda muhim ilmiy-amaliy muammo sifatida ko‘tarilmoqda. Shunday muqobil usullardan biri mediatsiya institutidir.

Mediatsiya – jinoyat ishi bo‘yicha jabrlanuvchi va jinoyatchi o‘rtasida mustaqil, betaraf vositachi (mediator) ishtirokida muzokaralar o‘tkazish orqali nizoni hal etishning samarali usuli hisoblanadi. U jabrlanuvchiga o‘z fikrini erkin bayon etish, o‘z muammosini ifodalash va zararga munosib kompensatsiya olish imkoniyatini taqdim etadi. Jinoyat sodir etgan shaxs uchun esa mediatsiya jarayoni mas’uliyatni anglash, ijtimoiy reintegratsiyaga imkonini yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasida 2018-yilda qabul qilingan “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun mediatsiya institutining boshlang‘ich huquqiy asoslarini yaratdi [1]. Biroq jinoyat qonunchiligiga mediatsiya elementlarini to‘liq va samarali integratsiya qilish masalasi hali ham o‘z yechimini kutmoqda. Jinoyat-protsessual qonunchiligida mediatsiya mexanizmlariga oid normalar yetarlicha ishlab chiqilmagan, mediatorlarning jinoyat sohasidagi vakolatlari aniq belgilanmagan va jabrlanuvchi huquqlarini himoya qiluvchi maxsus kafolatlar mavjud emas. Ushbu maqolada mazkur muammoning huquqiy-nazariy asoslari, xorijiy tajriba va O‘zbekistondagi rivojlanish istiqbollari kompleks tarzda tahlil etiladi.

Mediatsiyaning nazariy-huquqiy asoslari

Mediatsiya (lot. mediatio – vositachilik) – nizoni hal etishning muqobil usuli bo‘lib, unda tomonlar o‘z xohish-irodalari bilan mustaqil, betaraf vositachi-mediator yordamida kelishuvga erishadilar. Huquqshunoslikda mediatsiya “restorative justice” (tiklantiruvchi adolat) konsepsiyasining muhim qismi sifatida qaraladi. An’anaviy jazo paradigmasidan farqli o‘laroq, tiklantiruvchi adolat jinoyatni jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni buzish sifatida baholaydi va ushbu munosabatlarni tiklashni asosiy maqsad deb belgilaydi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Tiklantiruvchi adolat nazariyasi XX asrning 70-yillarida G‘arb huquqshunosligida shakllana boshladi. Howard Zehr o‘zining “Changing Lenses” asarida jinoyatni nafaqat qonun buzilishi, balki shaxsga va munosabatlarga yetkazilgan zarar sifatida ko‘rib chiqishni taklif qildi [2]. John Braithwaite esa “reintegrative shaming” konsepsiyasini ishlab chiqdi, unga ko‘ra jinoyatchi xatti-harakatini qoralash va uni jamiyatga qayta qabul qilish orqali qayta jinoyatchilikni kamaytirish mumkinligi asoslab berildi [3]. Ushbu nazariy asoslar mediatsiya institutini ilmiy jihatdan mustahkamladi va uning jinoyat qonunchiligiga tatbiq etilishini oqladi.

Jinoyat qonunchiligida mediatsiya quyidagi besh tamoyilga asoslanadi: (1) ixtiyoriylik – tomonlar mediatsiyada qatnashishga majburlanmaydi; (2) maxfiylik – jarayon doirasida oshkor qilingan ma’lumotlar sud dalili sifatida ishlatilmaydi; (3) betaraflik – mediator tomonlardan birini qo‘llab-quvvatlamaydi; (4) teng huquqlilik – jabrlanuvchi va jinoyatchi teng asosda ishtirok etadi; (5) tomonlarning o‘z-o‘zini boshqarishi – yakuniy kelishuv tomonlar tomonidan mustaqil qabul qilinadi. Ushbu tamoyillar mediatsiyani an’anaviy jinoyat sudlovidagi qarama-qarshi tomonlar tizimidan tubdan farqlantiradi va uni adolatning yangicha modeli sifatida mustahkamlaydi.

Mediatsiyaning huquqiy tabiati masalasida huquqshunoslar orasida munozaralar davom etmoqda. Ba’zi tadqiqotchilar mediatsiyani protsessual-huquqiy institut sifatida tavsiflasa, boshqalari uni moddiy huquq doirasida ko‘rib chiqadi. E.I.Nosyreva mediatsiyani protsessual jihatdan mustaqil bo‘lgan, ammo sud jarayoni bilan uzviy bog‘liq mexanizm sifatida tavsiflaydi [4]. Bu ta’rif O‘zbekiston sharoitiga ham mos keladi: mediatsiya sud jarayonini to‘xtatadi, ammo uning o‘rnini bositmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida mediatsiya

O‘zbekiston Respublikasida mediatsiya institutining huquqiy asosi bir necha normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-482-son) mediatsiya faoliyatining asosiy tamoyillarini, mediator maqomini, mediatsiya bitimining mazmuni va huquqiy kuchini, shuningdek mediatsiyaning turlarini belgilaydi [1]. Mazkur qonun 3-moddasida mediatsiya fuqarolik, oilaviy, mehnat va tadbirkorlik nizolariga qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining (1994-yil, keyingi tahrirlari bilan) 55-moddasi jabrlanuvchining yarashish huquqini mustahkamlagan [5]. Biroq ushbu normalar mediatsiya jarayonining tartib-qoidalarini, mediatorning rolini va mediatsiya bitimining sud protsessiga ta’sirini aniq tartibga solmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida mediatsiya institutining shakllanishi va rivojlanishi bevosita mamlakatda sud-huquq tizimini isloh qilishga qaratilgan keng ko‘lamli davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil

7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-son Farmoni [6] ushbu yo‘nalishdagi muhim dasturiy-huquqiy hujjatlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur Farmon hozirgi kunda o‘z kuchini yo‘qotgan bo‘lsa-da, u qabul qilingan davrda mamlakat huquqiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab bergan va keyinchalik mediatsiya institutining normativ-huquqiy jihatdan shakllanishi uchun zarur asos yaratgan.

Harakatlar strategiyasining ikkinchi ustuvor yo‘nalishi sud-huquq tizimini isloh qilish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquq hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, odil sudlovning samaradorligini oshirishga qaratilgan edi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish jarayonida nizolarni hal etishning zamonaviy va muqobil usullarini joriy etish zarurati alohida ahamiyat kasb etdi. Chunki an’anaviy sud tartibida nizolarni ko‘rib chiqish ko‘pincha katta vaqt, moliyaviy xarajat va protsessual resurslarni talab qilardi. Shu sababli xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilayotgan muqobil nizolarni hal etish mexanizmlarini milliy huquq tizimiga tatbiq etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

4947-sonli Farmonda bevosita “mediatsiya” atamasi keng yoritilmagan bo‘lsa-da, unda sud-huquq tizimini demokratlashtirish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratish, sudlarga tushadigan ishlar sonini kamaytirish hamda nizolarni tezkor va adolatli hal etishning yangi usullarini joriy etish kabi vazifalar belgilangan edi. Ushbu strategik maqsadlar keyinchalik mediatsiya institutining joriy etilishi va rivojlanishi uchun zarur siyosiy hamda huquqiy zaminni yaratdi.

Natijada Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida muqobil nizolarni hal etish institutlarini rivojlantirish bo‘yicha qonunchilik tashabbuslari ilgari surildi va 2018-yil 3-iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun mediatsiyani fuqarolik-huquqiy, mehnatga oid hamda ayrim boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni tomonlarning o‘zaro manfaatlarini hisobga olgan holda tinch yo‘l bilan hal etish vositasi sifatida mustahkamladi.

Amaldagi qonunchilik tahlili shuni ko‘rsatadiki, mediatsiya asosan yengil jinoyatlar va ba’zi iqtisodiy jinoyatlar bo‘yicha qo‘llanilishi mumkin. Og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar bo‘yicha mediatsiya mexanizmi qonunchilikda yetarlicha tartibga solinmagan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi

Xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonunchiligida mediatsiya institutining rivojlanish tajribasi O‘zbekiston uchun muhim metodologik ahamiyatga ega. Yevropa Kengashining 1999-yildagi “Jinoyat ishlarida mediatsiya” bo‘yicha tavsiyalariga ko‘ra, davlatlar

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

jinoyat jarayonida mediatsiya xizmatlarini rivojlantirishi, ayniqsa yosh huquqbuzarlar va oilaviy zo‘ravonlik holatlarida foydalanishi tavsiya etilgan.

Germaniyada 1999-yilda kiritilgan Jinoyat-protsessual kodeksining 155a-moddasiga ko‘ra, prokuratura va sudlar jinoyat ishini ko‘rib chiqish jarayonining har qanday bosqichida mediatsiyadan foydalanish imkoniyatini hisobga olishlari shart [7]. Bu holat mediatsiyani faqat tomonlar ixtiyori bilan emas, balki davlat tomonidan rag‘batlantirilgan usul sifatida ko‘rsatadi. Germaniyada “Täter-Opfer-Ausgleich” (jinoyatchi-jabrlanuvchi yarashish) dasturi 1980-yillardan boshlab muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bu dasturda ishtirok etgan jinoyatchilar o‘rtasida qayta jinoyatchilik darajasi an’anaviy sud yo‘lidan o‘tganlarga nisbatan sezilarli darajada past bo‘lgan [7].

Finlyandiyada 2006-yilda qabul qilingan “Jinoyat va ba’zi fuqarolik mojarolarida mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun mediatsiya xizmatlarining barcha viloyatlarda majburiy ravishda taqdim etilishini ta’minlaydi [8]. Ushbu model davlat moliyalashtiruvchi, ammo mustaqil tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan mediatsiyani nazarda tutadi. Finlyandiya modelining xususiyati shundaki, mediatsiya sud jarayonidan tashqarida olib borilib, uning natijasi sud tomonidan hisobga olinadi. Finlyandiya tajribasi ko‘p sonli o‘smirlar jinoyatlarini muvaffaqiyatli hal qilgan va retsidivizm ko‘rsatkichlarini kamaytirishga hissa qo‘shgan.

Qozog‘iston Respublikasida 2011-yilda qabul qilingan “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun va keyinchalik kiritilgan Jinoyat-protsessual kodeksidagi o‘zgarishlar mediatsiyani jinoyat ishlariga integratsiya qilishning muvaffaqiyatli namunasi hisoblanadi [9]. Qozog‘iston 2015-yildan boshlab yangi Jinoyat-protsessual kodeksida mediatsiya va sulh muomalalarini alohida bob sifatida mustahkamladi. Qozog‘iston tajribasi O‘zbekiston uchun ayniqsa dolzarb, chunki ikkala mamlakat huquq tizimi, tarixiy-madaniy kontekst va qonunchilik an’analari o‘xshash poydevorga ega.

AQShda mediatsiya jinoyat adolati tizimida keng qo‘llaniladi. M.S. Umbreit tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, mediatsiya jarayonidan o‘tgan jabrlanuvchilarning 79 foizi jarayondan qoniqish bildirgan, jinoyatchilarning esa 81 foizi mediatsiya bitimini to‘liq bajargan [10]. Bu ko‘rsatkichlar mediatsiyaning an’anaviy sudlov jarayoniga nisbatan samaradorligini aniq tasdiqlaydi.

Jinoyat ishlarida mediatsiya: amaliy jihatlar

Jinoyat qonunchiligida mediatsiya quyidagi toifadagi jinoyatlar bo‘yicha ayniqsa samarali bo‘ladi: yengil jinoyatlar (kichik hajmdagi o‘g‘rilik, shaxsiy jarohat, mol-mulkka zarar yetkazish); oilaviy zo‘ravonlik holatlari, ayniqsa ziddiyat to‘xtovsiz davom etayotgan munosabatlarda; o‘smirlar jinoyatchiligi, chunki voyaga yetmaganlar isloh bo‘lish salohiyatiga ko‘proq ega; iqtisodiy jinoyatlar, tomonlar o‘rtasida kelishuv imkoni mavjud bo‘lgan

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

hollarda [2, 3].

Mediatsiyaning jinoyat ishlarida qo‘llanilishi turli bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin. Birinchi bosqich – jinoiy ta’qib boshlangunga qadar (politsiya bosqichi): bu bosqichda mediatsiya eng samarali bo‘lib, taraflar o‘rtasida bevosita muloqot o‘rnatiladi va zudlik bilan kelishuv imkoni mavjud. Ikkinchi bosqich – sudgacha tergov bosqichida: prokuratura mediatsiya natijalarini hisobga olib, jinoiy ta’qibni to‘xtatishi mumkin. Uchinchi bosqich – sudda ko‘rish bosqichida: sud mediatsiyani o‘z tashabbusi bilan ham, tomonlar iltimosi asosida ham tayinlashi mumkin. To‘rtinchi bosqich – hukm ijrosi bosqichida: ayniqsa ozodlikdan mahrum qilish jazosini muhokama qilishda, jabrlanuvchining ruhiy tiklanishiga yordam beradi [4].

O‘zbekistonda amaliyot shuni ko‘rsatadiki, hozirda mediatsiya ko‘proq sudgacha muhokama bosqichida qo‘llanilmoqda, ammo samarali huquqiy mexanizmlar yetarli emas. Mediatsiya xizmati ko‘rsatuvchi tashkilotlar soni yetarli emas, ayniqsa viloyat va tuman darajasida. Jinoyat sohasida ixtisoslashgan mediatorlar juda kam; mavjud mediatorlarning aksariyati fuqarolik va oilaviy nizolarda tajribaga ega. Shuningdek, mediatsiya bitimining sud jarayoniga ta’sirini belgilovchi aniq mexanizm yo‘q, bu esa amaliyotda noaniqlik va qarama-qarshi yondashuvlarga olib kelmoqda.

Rivojlanish istiqbollari va tavsiyalar

Jinoyat qonunchiligida mediatsiya institutini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Quyida asosiy tavsiyalar keltiriladi.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga mediatsiyaga oid alohida bob kiritish zarur. Ushbu bob mediatsiyaning qo‘llanilish shartlari (jinoyat turi, tomonlar roziligi, jabrlanuvchi manfaatlarining himoyalanishi), vositachilar maqomi va ularning huquq-majburiyatlari, mediatsiya bitimining huquqiy kuchi va uni bajarmaslik oqibatlari, mediatsiyaning jinoiy ta’qibni to‘xtatishga ta’sirini aniq belgilashi lozim. Germaniya va Qozog‘iston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qonuniydagi alohida normalar mediatsiyani amaliyotda samarali qo‘llashni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, o‘smirlar jinoyatchiligi bilan bog‘liq ishlarda mediatsiyani majburiy yoki ustuvor bosqich sifatida joriy etish masalasi alohida e’tiborga loyiqdir. Zamonaviy jinoyat-huquq siyosatida voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazolashdan ko‘ra ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, huquqbuzarlik sabablarini bartaraf etish va jamiyatga qayta moslashtirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, mediatsiya instituti o‘smirlar jinoyatchiligiga qarshi kurashishda samarali vositalardan biri hisoblanadi. Mediatsiya jarayonida voyaga yetmagan huquqbuzar, jabrlanuvchi va ularning qonuniy vakillari o‘zaro muloqotga kirishib, nizoning sabablarini muhokama qiladi hamda yetkazilgan zararni qoplash yoki boshqa kelishuvga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday yondashuv nafaqat nizoni hal etishga, balki voyaga yetmagan shaxsning o‘z qilmishining

oqibatlarini anglashiga, jabrlanuvchi oldidagi mas’uliyatini his etishiga va kelgusida huquqbuzarlik sodir etishining oldini olishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlarga nisbatan restorativ adliya va mediatsiya mexanizmlaridan foydalanish an’anaviy jazolash choralariga nisbatan samaraliroq natijalarni beradi. Xususan, bir qator davlatlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar mediatsiya dasturlarida ishtirok etgan o‘smirlar orasida qayta jinoyat sodir etish holatlari sezilarli darajada kamayganligini ko‘rsatadi. Ayrim tadqiqotlarga ko‘ra, bunday dasturlar retsidiv darajasini o‘rtacha 30–40 foizga qisqartirishga xizmat qilgan [10]. Bu esa mediatsiyaning faqat nizoni hal qilish vositasi emas, balki huquqbuzarliklarning profilaktikasi va voyaga yetmaganlarni qayta tarbiyalashning samarali mexanizmi ekanligini tasdiqlaydi. O‘zbekiston qonunchiligida ham voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, mediatsiyaning ushbu toifadagi ishlarda qo‘llanilishi hali yetarli darajada rivojlanmagan. Amaliyotda ko‘plab hollarda voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq ishlar umumiy protsessual tartibda ko‘rib chiqiladi. Natijada ayrim o‘smirlar jinoyat protsessiga jalb qilinib, salbiy ijtimoiy muhit ta’siriga tushib qolishi yoki o‘zini jamiyatdan chetlatilgan shaxs sifatida his qilishi mumkin. Mediatsiya esa bunday salbiy oqibatlarning oldini olishga yordam beradi, chunki uning asosiy maqsadi jazolash emas, balki tomonlarni yarashtirish va ijtimoiy adolatni tiklashdan iborat. Shu munosabat bilan o‘smirlar jinoyatchiligiga oid ayrim toifadagi ishlar bo‘yicha mediatsiyani majburiy yoki kamida dastlabki ko‘rib chiqilishi shart bo‘lgan protsedura sifatida joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda, avvalo, og‘ir bo‘lmagan va ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan huquqbuzarliklar bo‘yicha mediatsiya imkoniyatlaridan foydalanish lozim. Agar tomonlar kelishuvga erishsa, nizoni sudgacha hal etish va voyaga yetmagan shaxsga nisbatan muqobil ta’sir choralarini qo‘llash imkoniyati yaratiladi. Bu esa nafaqat sudlar yuklamasini kamaytiradi, balki o‘smirning kelajakdagi hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan sudlanganlik bilan bog‘liq oqibatlarni ham minimallashtiradi. Bundan tashqari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash uchun maxsus “yosh mediatori” institutini joriy etish zarur. Chunki o‘smirlar bilan ishlash kattalar o‘rtasidagi nizolarni hal etishdan sezilarli darajada farq qiladi. Bunday mediator nafaqat huquqiy bilimlarga, balki pedagogika, bolalar psixologiyasi, konfliktologiya va kommunikatsiya ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi kerak. Voyaga yetmagan shaxsning ruhiy holati, oilaviy muhiti, ijtimoiy sharoiti va yoshiga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olmasdan turib samarali mediatsiya o‘tkazish qiyin. Shu sababli “yosh mediatorlari”ni tayyorlash bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, sertifikatlash tizimini yaratish va ularning malakasini muntazam oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, malakali mediatorlar tayyorlash uchun maxsus sertifikatlash tizimini yaratish va ularning jinoyat ishlari sohasidagi

vakolatlarini aniq belgilash talab etiladi. Hozirda O‘zbekistonda mediatorlar asosan fuqarolik nizolari bo‘yicha ixtisoslashgan. Jinoyat sohasidagi mediatsiya esa psixologiya, kriminologiya va jinoyat-protsessual huquq sohasida maxsus bilimlarni talab qiladi. Oliy ta’lim muassasalarida “Jinoyat mediatsiyasi” ixtisosligi yoki qo‘shimcha ta’lim dasturlarini joriy etish bu masalani hal qilishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, jabrlanuvchi va jinoyatchi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni ta’minlovchi “victim-offender mediation” (jabrlanuvchi-jinoyatchi mediatsiyasi) dasturlarini kengaytirish zarur. Bu jabrlanuvchilarning psixologik tiklanishiga ham xizmat qiladi [3]. Ayniqsa oilaviy zo‘ravonlik va shaxsiy jarohatlarda jabrlanuvchi ko‘pincha moliyaviy kompensatsiyadan ko‘ra ma’naviy tan olish va kechirim so‘rashni ko‘proq istaydi. Mediatsiya jarayoni ana shu ehtiyojni qondiradi.

Beshinchidan, mediatsiya xizmatlarini moliyalashtirish mexanizmini yaratish lozim. Finlyandiya va Germaniya tajribasi ko‘rsatadiki, davlat tomonidan moliyalashtirilgan, ammo mustaqil tashkilotlar orqali amalga oshiriladigan mediatsiya xizmati eng samarali modeldir. O‘zbekistonda ham ushbu modelni joriy etish, viloyat va tuman darajasida mediatsiya markazlarini ochish zarur.

Xulosa

Jinoyat qonunchiligida mediatsiya institutini rivojlantirish O‘zbekiston huquq tizimini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu maqolada tahlil qilingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, mediatsiya an’anaviy jazo tizimini to‘ldiruvchi, jabrlanuvchi manfaatlarini himoya qiluvchi va ijtimoiy munosabatlarni tiklovchi samarali mexanizm hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar – Germaniya, Finlyandiya, Qozog‘iston va AQSh – tajribasi mediatsiyaning jinoyat adolati tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilinishi mumkinligini isbotlaydi. Bu tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirib joriy etish nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ham ta’minlaydi: qayta jinoyatchilik kamayadi, sud yuklamasi kamayadi, jabrlanuvchilar o‘z muammolarini tezroq hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Maqolada taklif etilgan tavsiyalar – Jinoyat-protsessual kodeksiga alohida bob kiritish, o‘smirlar jinoyatchiligida mediatsiyani majburiy bosqich sifatida joriy etish, ixtisoslashgan mediatorlar tayyorlash, “victim-offender mediation” dasturlarini kengaytirish va moliyalashtirish mexanizmini yaratish – O‘zbekiston jinoyat adolati tizimining samaradorligini oshirish va ijtimoiy integratsiyani ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishda tizimli tadqiqotlarni davom ettirish va qonunchilik islohoti uchun ilmiy asoslarni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2018-yil 3-iyul, O‘RQ–482-son. – Toshkent: Adolat, 2018. – 24 b. (Law of the Republic of Uzbekistan “On Mediation”. July 3, 2018, No. ORQ-482. – Tashkent: Adolat, 2018. – 24 p.).

https://lex.uz/docs/-3805227

2. Zehr H. Changing Lenses: A New Focus for Crime and Justice. – Scottdale: Herald Press, 1990. – 275 p. / Зер Х. Восстановительное правосудие: новый взгляд на преступление и наказание / Пер. с англ. – М.: МОО Центр «Судебно-правовая реформа», 2002. – 328 с. (Zehr H. Restorative Justice: A New Perspective on Crime and Punishment. – Moscow: Judicial and Legal Reform Center, 2002. – 328 p.)

3. Braithwaite J. Restorative Justice and Responsive Regulation. – New York: Oxford University Press, 2002. – 320 p.

4. Носырева Е.И. Альтернативное разрешение споров в США. – М.: Городец, 2005. – 320 с. (Nosyreva E.I. Alternative Dispute Resolution in the USA. – Moscow: Gorodets, 2005. – 320 p.)

5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 1994-yil 22-sentabr (keyingi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan). – Toshkent: Adolat, 2023. – 412 b. (Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan. September 22, 1994 (with subsequent amendments and additions). – Tashkent: Adolat, 2023. – 412 p.) https://lex.uz/docs/-111460#-253758

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. – https://lex.uz/docs/3107042

7. Dölling D., Hartmann A., Traulsen M. Täter-Opfer-Ausgleich in Deutschland. – Berlin: Forum Verlag Godesberg, 2003. – 310 S. (Victim-Offender Mediation in Germany. – Berlin: Forum Verlag Godesberg, 2003. – 310 p.)

8. Iivari J. Restorative Justice in Finland. – Helsinki: Ministry of Justice, 2010. – 180 p.

9. Қазақстан Республикасының “Медиация туралы” Заңы. 2011 жылғы 28 қаңтар, № 401-IV ҚРЗ. – Астана, 2011. (Law of the Republic of Kazakhstan “On Mediation”. January 28, 2011, No. 401-IV. – Astana, 2011.)

10. Umbreit M.S. Victim Meets Offender: The Impact of Restorative Justice and Mediation. – Monsey: Criminal Justice Press, 1994. – 210 p.